

**QISHLOQ JOYLARIDA XIZMAT KO'RSATISH SOHASINI
RIVOJLANTIRISH****Usmonov Murodbek Dusmurot o'g'li**

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti,

“Raqamli iqtisodiyot” kafedrası assistent-stajyori

e-mail: usmonov.murodbek95@gmail.com

Tel: +998937220855

Boymurotova Marjona Botir qizi,

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti,

Iqtisodiyot fakulteti talabasi

e-mail: boymurotovamarjona647@gmail.com

Tel: +998 943184567

Annotatsiya. Ushbu maqola O'zbekistonning qishloq hududlarida xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanish tendensiyalarini 2020–2024 yillar kesimida tahlil qiladi. Tadqiqot hududlar bo'yicha bozor xizmatlari o'sish sur'atlarini statistik ma'lumotlar asosida baholash, hududlararo farqlarni aniqlash va xizmatlar sektorini rivojlantirishga ta'sir etuvchi asosiy omillarni o'rganishga qaratilgan. Maqolada qishloq hududlarida xizmat infratuzilmasi, investitsiya oqimi, xizmatlar diversifikatsiyasi va raqamli texnologiyalar orqali xizmat ko'rsatish samaradorligini oshirish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari hududiy nomutanosibliklarni kamaytirish, xizmatlar sektorining barqaror rivojlanishini ta'minlash va siyosiy hamda amaliy chora-tadbirlarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Qishloq hududlari, xizmat ko'rsatish sohasi, bozor xizmatlari, hududiy rivojlanish, o'sish sur'ati, raqamli xizmatlar, infratuzilma, hududlararo tafovut

Adabiyotlar sharhi

So'nggi yillarda O'zbekiston iqtisodiyotida xizmatlar sektorining ulushi sezilarli darajada ortib borayotgan bo'lsa-da, qishloq hududlarida ushbu sohaning rivojlanishi hali yetarli darajada izchil emas. Aholining 50 foizdan ortig'i qishloq joylarda yashashini inobatga olganda, mazkur hududlarda xizmatlar bozorining rivojlanish sur'ati nafaqat iqtisodiy o'sish, balki ijtimoiy farovonlikni oshirishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Xizmatlar tarmog'idagi infratuzilmaning yetarli darajada shakllanmaganligi, servis sifatining pastligi hamda xizmat turlarining cheklanganligi qishloq iqtisodiyotining raqobatbardoshligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shu bois, qishloq joylarida xizmat ko'rsatish sohasini chuqur o'rganish va rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish dolzarb ilmiy va amaliy vazifa sifatida namoyon bo'lmoqda.

Mazkur tadqiqotning ilmiy ahamiyati shundan iboratki, unda qishloq hududlarida xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanish dinamikasi statistik ma'lumotlar asosida fundamental tahlil qilinadi. Xizmatlar sektorining hududiy rivojlanishi bo'yicha mavjud ilmiy tadqiqotlar asosan makroiqtisodiy ko'rsatkichlarga qaratilgan bo'lib, qishloq joylari kontekstida aniq hududlararo farqlarni o'rganishga yetarlicha e'tibor berilmagan. Ushbu ish hududlar kesimidagi xizmatlar infratuzilmasining rivojlanish sur'atlarini o'lchash, mintaqaviy tafovutlarni aniqlash hamda xizmatlar sektorining asosiy rivojlantiruvchi omillarini tizimli tahlil qilish orqali ilmiy bo'shliqni to'ldiradi. Natijada, qishloq hududlarida xizmatlar sektorining barqaror rivojlanish mexanizmlari bo'yicha ilmiy asoslangan yondashuvlar taklif etiladi.

Davlat tomonidan amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar, raqamli transformatsiya jarayonlari va xizmatlar sektorini diversifikatsiya qilish bo'yicha strategik chora-tadbirlar qishloq hududlarida xizmatlar ko'rsatish tizimini tubdan yangilashni talab etmoqda. Biroq amaldagi statistika hududlar o'rtasida sezilarli tafovutlar mavjudligini ko'rsatadi, bu esa xizmatlar bozorining barqaror rivojlanishiga to'sqinlik qilmoqda. Xizmatlar tarmog'ining o'sish sur'atlari, infratuzilmaviy imkoniyatlar, kadrlar salohiyati va investitsiya oqimlaridagi nomutanosibliklar qishloq joylarining iqtisodiy rivojlanishida tizimli muammolarni keltirib chiqarmoqda. Shuning uchun ham ushbu sohani chuqur tahlil qilish, uning rivojlanish mexanizmlarini aniqlash va amaliy takliflar ishlab chiqish zarurati mavjud.

Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi qishloq hududlarida xizmat ko'rsatish sohasining 2020–2024 yillardagi rivojlanish tendensiyalarini tahlil qilish, hududlar o'rtasidagi tafovutlarni aniqlash va sohaning rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash orqali ilmiy asoslangan xulosalar ishlab chiqishdir. Tadqiqot konseptual jihatdan iqtisodiy-statistik tahlil, hududiy qiyosiy baholash va dinamik ko'rsatkichlarga tayangan holda amalga oshiriladi. Shu tariqa, xizmatlar infratuzilmasini modernizatsiya qilish, yangi xizmat turlarini kengaytirish va qishloq joylarida xizmatlar sektorining barqaror rivojlanishi uchun strategik yo'nalishlar ilmiy asosda belgilanishi ko'zda tutiladi.

Adabiyotlar sharhi

Qishloq joylarida xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish bo'yicha ilmiy adabiyotlar ko'rsatadiki, xizmatlar sektori iqtisodiy o'sish, bandlikni oshirish va aholi farovonligini yaxshilashda strategik ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston olimlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlar bu yo'nalishning milliy xususiyatlarini chuqur tahlil qilgan. Umirzoqova [1] o'z tadqiqotida qishloq hududlarida maishiy xizmatlar, ta'lim, tibbiy xizmatlar va savdo tarmoqlarining rivojlanishi aholi yashash darajasini oshirishda muhim omil ekanini asoslaydi. Unga ko'ra, xizmatlar tarmog'ining kengayishi qishloq aholisi uchun iqtisodiy faollik, bandlik va ijtimoiy infratuzilma ko'lamining oshishiga xizmat qiladi. Shunga o'xshash yondashuv Taylakova

tomonidan ham ilgari surilib, muallifning tadqiqotida [2] qishloq hududlarida xizmat ko'rsatish sohasining konseptual rivojlanish yo'nalishlari, xizmat turlarining diversifikatsiyasi, infratuzilmaning yangilanishi va davlat siyosatining qo'llab-quvvatlov mexanizmlari batafsil tahlil qilinadi.

Xalqaro tajriba esa xizmat ko'rsatish sohasi rivojlanishining zamonaviy paradigmasini raqamli texnologiyalar, IoT va ICT asosida shakllanayotgan "aqlli qishloq" (smart village) modelini taklif etadi. Degada, Thapliyal va Mohantyning tadqiqoti [3] smart-village kontsepsiyasining amaliy mexanizmlarini yoritib, IoT yordamida telemeditsina, aqlli energiya, raqamli ta'lim, masofaviy xizmatlar va onlayn boshqaruv tizimlarining qishloq hududlaridagi xizmatlar sifatini sezilarli yaxshilashini asoslab beradi. Shu bilan birga, Nayak, Thorat va Kalyankar tomonidan olib borilgan tadqiqot [4] ICTning qishloq hududlarida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishdagi rolini ochib beradi. Mualliflar qishloq aholisining ta'lim, sog'liqni saqlash, ma'lumot almashinuvi va raqamli xizmatlarga kirish imkoniyatini kengaytirish orqali "raqamli bo'linish"ni kamaytirish muhimligini ta'kidlaydi.

Bundan tashqari, Kamutuezu va hammualliflarning Namibiya misolida o'tkazgan tadqiqoti [5] qishloq hududlarida ICTga asoslangan tadbirkorlik va xizmat ko'rsatish platformalarining rivojlanishiga ta'sir qiluvchi omillarni aniqlaydi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, raqamli savodxonlik darajasi, internet narxi, texnik vositalarning yetishmovchiligi va infratuzilma bilan bog'liq cheklovlar qishloq xizmatlar sektorining raqamli transformatsiyasida hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Milliy va xalqaro tadqiqotlarni taqqoslash shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanishi asosan infratuzilma, xizmat turlari sifati va davlat qo'llab-quvvatloviga qaratilgan bo'lsa, xalqaro adabiyotlarda zamonaviy raqamli texnologiyalarning transformatsion roli markaziy o'rinda turadi. Shu bois, ikkala yondashuvning integratsiyalashuvi ya'ni an'anaviy xizmatlar tarmoqlarini raqamli xizmatlar bilan uyg'un holda rivojlantirish qishloq hududlarining barqaror va innovatsion rivojlanishi uchun optimal strategiya hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu tadqiqotda qishloq joylarida xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanish dinamikasini aniqlash maqsadida kompleks iqtisodiy-statistik metodologiya qo'llanildi. Tadqiqotning empirik bazasini 2020–2024 yillar uchun O'zbekiston Respublikasi hududlari bo'yicha bozor xizmatlari ko'rsatkichlari tashkil etdi. Tahlil jarayonida vaqt qatorlari usuli asosida yillik o'sish sur'atlarining tendensiyalari baholandi, hududlar kesimidagi farqlarni aniqlash uchun qiyosiy tahlil (comparative analysis) va variatsion ko'rsatkichlar qo'llandi. Shuningdek, xizmatlar sektorining rivojlanishiga ta'sir etuvchi asosiy omillarni aniqlash maqsadida deskriptiv statistika, dinamik indekslar va mintaqaviy taqsimotlar tahlili amalga oshirildi.

Tahlil va natijalar

Tahlil va natijalar bo‘limi mazkur tadqiqotning empirik asosini tashkil etib, 2020–2024 yillarda respublika va hududlar kesimida bozor xizmatlari ko‘rsatish sohasining o‘shish dinamikasini chuqur tahlil qilishga qaratilgan. Ushbu qismda hududlar bo‘yicha xizmatlar sektorining rivojlanish sur‘atlaridagi farqlar, o‘shishga ta’sir etuvchi makroiqtisodiy omillar, infratuzilma darajasi, aholi jon boshiga xizmatlar ulushi hamda xizmatlar diversifikatsiyasi kabi parametrlar statistik ma’lumotlar asosida baholanadi. Shuningdek, mintaqalar o‘rtasidagi tafovutlar, yuqori o‘shishga ega hududlarning iqtisodiy xususiyatlari hamda past sur‘atlarni belgilovchi cheklovlar aniqlanadi. Ushbu tahlil natijalari qishloq joylarida xizmatlar infratuzilmasini modernizatsiya qilish, xizmatlar ta’minotini hududiy muvozanatga keltirish hamda xizmatlar bozorining barqaror rivojlanishini ta’minlashga qaratilgan ilmiy-amaliy xulosalarni shakllantirishga xizmat qiladi.

1-jadval.

Ko‘rsatilgan bozor xizmatlarining o‘shish sur‘atlari (foizda, yillik)

Hududlar	2020	2021	2022	2023	2024	O‘shish sur‘ati
O‘zbekiston Respublikasi	103	119.5	116.3	114.1	114.2	1.11
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	106.1	121.5	116	110.7	109.6	1.03
Andijon viloyati	105.6	118.3	113	111.1	114.3	1.08
Buxoro viloyati	106.1	118	115.7	110.7	109.9	1.04
Jizzax viloyati	105.9	117.8	115.9	115.3	112.2	1.06
Qashqadaryo viloyati	106.7	114.4	113.8	111.5	110.9	1.04
Navoiy viloyati	105.8	118.3	113	114.8	115.2	1.09
Namangan viloyati	103.8	119.7	115.7	111.5	113.5	1.09
Samarqand viloyati	101	119	114.7	113.7	115.4	1.14
Surxondaryo viloyati	104.5	120.1	113.8	109.5	110.5	1.06
Sirdaryo viloyati	110.7	118.8	110.7	110.6	114	1.03
Toshkent viloyati	102	117.8	112	111.7	113.2	1.11
Farg‘ona viloyati	105.3	117.4	114.7	110	113.1	1.07
Xorazm viloyati	101.5	118.9	115.1	114.5	113.8	1.12
Toshkent shahri	108.2	123.4	121.1	119.7	119.1	1.10

Yuqorida keltirilgan 1-jadval ma’lumotlari respublika miqyosida 2020–2024 yillarda bozor xizmatlari ko‘rsatish sohasida barqaror o‘shish kuzatilganini ko‘rsatadi. O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha yillik o‘shish ko‘rsatkichi 103 foizdan 114,2 foizgacha ko‘tarilib, 1,11 baravarlik o‘shish sur‘ati bilan yakunlangan. Bu davr

davomida xizmatlar sektori iqtisodiyotda iqtisodiy faollikning oshishi, ichki talabning tiklanishi hamda mintaqaviy xizmat korxonalarining kengayishiga tayanib rivojlangan. Pandemiya davridan keyingi tiklanish jarayonlari ayniqsa 2021 yilda kuchli aks etgan bo'lib, barcha hududlarda keskin o'sish qayd etilgan.

Hududlar bo'yicha tahlil shuni ko'rsatadiki, Toshkent shahri, Samarqand viloyati va Xorazm viloyatlari eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar sifatida ajralib turadi. Toshkent shahrida 2021 yilda 123,4 foizlik keskin sakrash yuz bergan bo'lib, bu xizmatlar sektori uchun poytaxtning markaz sifatidagi funksiyasidan dalolat beradi. Samarqand viloyatida 2024 yilda 115,4 foizlik natija qayd etilgan bo'lib, viloyatning turizm, savdo va maishiy xizmatlari ulushi sezilarli darajada oshgan. Xuddi shuningdek, Xorazm viloyatining o'sish sur'ati 1,12 baravarga yetib, eng yuqori ko'rsatkichlardan biri sifatida qayd etilgan. Ammo ayrim hududlarda, xususan Qoraqalpog'iston Respublikasi, Sirdaryo va Qashqadaryo viloyatlarida o'sishning nisbatan pastroq sur'atlarda kechayotgani infratuzilmaviy cheklovlar va xizmatlar diversifikatsiyasining sustligini ko'rsatadi.

Besh yillar dinamikasi hududlar o'rtasida xizmatlar sohasining o'sish darajasida sezilarli tafovutlar borligini namoyon qiladi. Bunda turizmga ixtisoslashgan, transport-logistika imkoniyatlari yuqori bo'lgan yoki aholisi zich hududlarda xizmatlar bozori tezroq rivojlanayotgani kuzatiladi. Masalan, Navoiy va Namangan viloyatlari 1,09 baravarlik o'sish sur'ati bilan yuqori natija ko'rsatgan bo'lib, bu hududlar iqtisodiyotda xizmatlar sektorining ulushi ortib borayotganini tasdiqlaydi. Aksincha, iqtisodiy imkoniyatlari cheklangan, xizmat korxonalari soni kamroq bo'lgan yoki aholi jon boshiga xizmatlar ulushi yetarlicha shakllanmagan mintaqalarda o'sish sur'atlari mos ravishda pastroq qayd etilgan. Bu holat hududlararo xizmatlar infratuzilmasini muvozanatlashtirish zarurati mavjudligini anglatadi.

Xulosa va takliflar

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, qishloq hududlarida xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanishi iqtisodiy o'sishning muhim drayveri sifatida shakllanmoqda. 2020–2024 yillar bo'yicha statistik tahlil hududlar kesimida xizmatlar sektori o'sish sur'atlari sezilarli darajada farqlanishini namoyon etdi. Turizm, transport-logistika va savdo xizmatlari rivojlangan hududlarda o'sish sur'atlari ancha yuqori bo'lib, bunda modernizatsiya, yangi xizmat turlarining kengayishi va bozor mexanizmlarining faol ishlashi asosiy rol o'ynagan. Bu holat xizmatlar sektorining hududiy iqtisodiy rivojlanishda strategik ahamiyatga egaligini tasdiqlaydi.

Hududlar o'rtasidagi tafovutlar shuni anglatadiki, xizmat ko'rsatish infratuzilmasining rivojlanganlik darajasi, raqamli texnologiyalarning joriy qilinishi va biznes muhitining sifatiga qarab o'sish sur'atlari shakllanmoqda. Toshkent shahri, Samarqand, Navoiy va Namangan viloyatlari yuqori o'sish sur'atlarini qayd etgan bo'lsa, ayrim hududlarda infratuzilmaviy cheklovlar va investitsiya oqimining pastligi

xizmatlar sektorining rivojlanishini sekinlashtirgan. Bu esa hududlararo nomutanosiblikni kamaytirish bo'yicha tizimli siyosiy, institutsional va iqtisodiy choralarni kuchaytirish zaruratini ko'rsatadi.

Yig'ilgan tahliliy ma'lumotlar xizmatlar sohasini yanada rivojlantirish uchun aniq yo'nalishlarni belgilash imkonini berdi. Xizmatlar diversifikatsiyasini kengaytirish, qishloq joylarda raqamli xizmatlarni joriy etish, kadrlar salohiyatini kuchaytirish va zamonaviy servis standartlarini tatbiq etish orqali xizmat ko'rsatish bozorining raqobatbardoshligini oshirish mumkin. Shu bilan birga, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlov mexanizmlarining kuchaytirilishi, xususiy sektor faolligining oshirilishi va infratuzilmaga investitsiyalarni jalb qilish barqaror o'sish uchun muhim shart hisoblanadi.

Olib borilgan tahlil natijalarida quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

Birinchidan, qishloq hududlarida xizmatlar sektorining rivojlanishi iqtisodiy o'sishning ustuvor drayveri bo'lib, hududiy farovonlikni oshirishda muhim rol o'ynaydi.

Ikkinchidan, hududlar o'rtasidagi o'sish sur'atlaridagi tafovutlar xizmatlar infratuzilmasi, raqamli texnologiyalar darajasi va investitsiya oqimlarining nomutanosibligini ko'rsatadi.

Uchinchidan, xizmatlar diversifikatsiyasini kengaytirish va raqamli xizmatlarni joriy etish qishloq joylarida xizmat bozorining samaradorligini oshirish uchun eng muhim yo'nalishlardan biridir.

To'rtinchidan, davlat va xususiy sektor hamkorligining kuchaytirilishi, xizmatlar infratuzilmasiga investitsiyalarni ko'paytirish va biznes muhitini yaxshilash xizmat ko'rsatish sohasining barqaror rivojlanishini ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

- [1] M. Umirzoqova, "Qishloq joylarda xizmat ko'rsatishni rivojlantirish va aholi turmush darajasini yuksaltirish" Green Economy and Development, vol. 2, no. 12, 2024. <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/journal/index.php/GED/article/view/4180>
- [2] D. Taylakova, "Qishloq joylarda xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirishning konseptual yo'nalishlari" Green Economy and Development, 2025. <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/journal/index.php/GED/article/view/6578>
- [3] A. Degada, H. Thapliyal, and S. P. Mohanty, "Smart Village: An IoT Based Digital Transformation" arXiv preprint arXiv:2106.03750, 2021. <https://arxiv.org/abs/2106.03750>
- [4] S. K. Nayak, S. B. Thorat, and N. V. Kalyankar, "Reaching the Unreached: A Role of ICT in Sustainable Rural Development" International Journal of

Computer Science and Information Security, vol. 7, no. 1, pp. 220–224, 2010.

<https://arxiv.org/abs/1002.2134>

- [5] E. U. Kamutuezu, H. Winschiers-Theophilus, and A. Peters, “An Exploration of Factors Influencing the Adoption of ICT Enabled Entrepreneurship Applications in Namibian Rural Communities,” arXiv preprint arXiv:2108.09789, 2021.
<https://arxiv.org/abs/2108.09789>
- [6] https://stat.uz/img/analitika-01_2025-eng_p40270.pdf
- [7] https://stat.uz/img/analitika-12_2024-eng_p56121.pdf
- [8] <https://www.uzdaily.uz/en/uzbekistans-service-sector-reaches-31725-trillion-soums-in-january-july-2024/>
- [9] <https://www.uzdaily.uz/en/uzbekistans-services-sector-grows-144-in-january-october-2025/>
- [10] <https://invexi.org/en/press/key-indicators-of-the-services-sector-in-uzbekistan-for-january-february-2025/>
- [11] <https://www.uzdaily.uz/en/the-services-sector-remains-a-key-driver-of-uzbekistans-gdp-growth/>